

Termiz shahrida 1 000 o‘rinli bilim va malakalarni baholash markazi qurilmoqda



Termiz shahri “Tinchlik” mahallasi hududida loyiha qiymati 21 mlrd so‘m bo‘lgan, Bilim va malakalarni baholash agentligining Surxondaryo viloyati filiali uchun 1 000 o‘rinli, zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlanadigan yangi bino qurilmoqda. Loyiha pudratchisi bo‘lgan “Termiz Boysun qurilish” MCHJ quruvchilariga ishlarni sifatli amalga oshirish, soha mas’ullariga qurilish ishlarini doimiy nazorat qilib borish topshirig‘i berildi.